

**Singapur tajribasini
O'zbekistonda qo'llash muhim
ahamiyatga ega**

2-betda o'qing ↘



**Hukumat qarorining
ijrosi yo'qmi?**

3-betda o'qing ↘

INSON va qonun

2023-YIL
7-FEVRAL
SESHANBA

No 05 (1365)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/

@adolat_nashrlari




"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!



NIZOLARNI ONLAYN HAL QILISH TIZIMI



MULTI-DOOR COURTHOUSE – KO'P TARMOQLI MARKAZ

MAMLAKATIMIZDA sud-huquq tizimini demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud hokimiyyati mustaqilligini ta'minlash, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bora-sida keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Keyingi yillarda Kontinental Yevropa, AQSh hamda sud tizimi rivojlangan Osyo mamlakatlarda nizolarni sudsagacha hal qilishning samarali mexanizmlari va metodlari ishlab chiqildi. Ayniqsa, ular orasida "Multi-door courthouse" markazlarining tashkil etilishi nizolarni tez, samarali va kamxarjal hal etilishi bilan ajralib turadi. Bunday markazlarda nizolarni sudsagacha muqobil hal qilishning barcha turlari mavjud. Ular nizolashuvchi tarafarga vujudga kelgan nizoni hal qilish uchun ixtiyoriy tanlov asosida o'zlariga maqbul deb topgan turida hal qilish imkoniyatini beradi.

Bunday markazlarning tashkil etilishi sudlarda arizalarning kamayishiga, shu tariqa sud jarayoni muddatlarining sezilarli qisqarisligi sabab bo'ladi. Muhimmi, bu jarayon nizolarni hal qilish samaradorligi va qonuniyligi oshishiga olib keladi.

Nizolarni hal qilishda nizolarni sudsagacha muqobil hal qilish usuli sifatida "Multi-door courthouse" markazlarini tashkil etish mexanizmini ishlab chiqish muhim o'rinni tutadi. Multi-door courthouse – nizolarni hal qilish bo'yicha ko'p tarmoqli markaz. U muayyan nizolarni shaxslar uchun maqbul mexanizmlar orqali nizolarni sudsagacha hal qilish turlariga mos kelishi mumkinligini ilgari suradi. Nizolarni muqobil hal etish(ADR)ning mos turini tanlash bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu muammoning yechimi sifatida "Multi-door courthouse" markazlari muhim ahamiyat kasb etadi.

"Multi-door courthouse" markazi nizoni samarali hal etishiga erishish maqsadida ularni hal qilishga qaratilgan hamda milliy sudlarda mustaqil yokiunga bog'langan, muammolariga hal qilish usullarining har qanday turini tanlay olish imkoniyatini bera oladigan institusional tashkilot hisoblanadi. Ushbu markazda quyidagi ADR turlari mavjud bo'lishi mumkin – arbitraj sudi, kelishuv (conciliation), mediatsiya, dastlabki neytral baholash, mediatsiya-arbitraj, mini-sudlar, nizolarni hal qilish konferensiysi, maxsus magistrlar va hakamlar hay'ati sudlari (summary jury trials).

O'TGAN 2022-yil oldimizga qo'ygan asosiy maqsad va vazifalarimizni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yili bo'ldi desam, mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, yakunlangan yilda aholiqa huquqiy axborotni yetkazish va bepul yuridik yordam ko'rsatish ko'lamin yanada kengaytirish maqsadida 13 ta tuman (shahar)larda qoshimcha ravishda huquqiy maslahat byurolari tashkil etilib, ularning soni 73 taga yetkazildi. Mazkur byurolar tomonidan joylarda 135 mingdan ortiq fuqarolarga huquqiy masalalar bo'yicha bevosita bepul yuridik yordam ko'rsatildi.

Bepul huquqiy YORDAM UCHUN “MADAD” GA MUROJAAT QILING!



dolalat beradi. Binobarin, joriy yillardan boshlab fuqarolik-huquqiy munosabatlarga oid hujjatlar loylighalarini onlayshaklda tayyorlab berish amaliyoti yo'lg'a qo'yildi.

Albatta, bunday amaliyot, birinchi navbatda, hamma vaqt ham yetarli bilim va malakaga ega bo'Imagan yoki advokat xizmatidan foydalanish uchun moddiy jihatdan imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun yaratilgan qulay imkoniyatdir. Buning uchun avvalambor, fuqaro "Advice.uz" huquqiy axborot portalini orgali tashkilotimizga murojaat qilib, tegishli huquqiy hujjatlar va ma'lumotlarni yuborishi lozim. Shundan so'ng, o'sha ma'lumotlar asosida, muayyan bir muddatda, fuqaroning nomidan tegishli huquqiy hujjat loyihasi onlayshaklda tayyorlab beriladi.

Shuningdek, rasmiy saytimiz hisoblangan "Advice.uz" huquqiy axborot portalini orqali murojaat yo'ilgan 85 mingda yaqin fuqarolarga onlayshaklda yetdi.

Qolaversa, hamyurtlarimizning huquqiy muammolarini joylarda hal etish maqsadida sud va boshqa davlat organlariga murojaat qilishlari yuzasidan 10 mingdan ortiq huquqiy hujjatlar loylighalarini (ariza, shikoyat, da've ariza) bepul tayyorlab berildi. Bu raqamlar esa murojaatlar sonining yildan-yilga oshib borayotganligi, fuqarolar kundalik hayotidagi u yoki bu masalalarni hal etish borasida hanuzgacha muayyan muammolarga duch kelayotganligi, ularning qonuniy yechimini topish va buzilgan huquqlarini tiklash masalasida esa malakalari huquqiy yordamga ehtiyoj sezayotganligidan

2 KO'ZGU

AHOLINING odil sudlovga erishish imkoniyatlari ni yanada kengaytirish sud-huquq tizimini isloh qilishni jadallashtirishni, sohaga ilg'or xalqaro standartlarni joriy etishni talab etmoqda. Mazkur yo'naliishda, aynan sudlar mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan o'nga yaqin qonunchilik hujjatlar qabul qilindi. Sohadagi islohotlar Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida ham o'z aksini topdi. Murojaatnomada odil sudlov masalasiga alohida to'xtalib o'tildi, sud tizimida amalga oshiriladigan qator o'zgarishlar yuzasidan muhim vazifalar belgilab berildi.

SUDLAR MUSTAQILLIGI – ADOLAT KAFOLATI

Mazkur ishlarning uzviy davomi sifatida joriy yil 16-yanvarda "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarni yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qoshimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va "Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo'yicha qoshimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmonlari imzolandi.

Prezident Murojaatnomasida odil sudlov darajasini tubdan yan-gilashga qaratilgan qator tayanch vazifalar belgilab berildi. Eng muhim, sud tizimida yuz beradigan islohotlar mustahkamlab qo'yildi. Sud-huquq tizimining jadal isloh qilinishini ta'minlash, odil sudlovga erishish darajasini yanada oshirish uchun 2023-2026 yillarga mo'l-jallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi hamda uni amalga oshirish bo'yicha harakatlar dasturi tasdiqlandi. Mazkur Strategiyaning ahamiyatli jihat shundaki, unda odil sudlovni ta'minlashning ustuvor vazifasi etib "Inson qadri uchun" g'oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakkantirish, adolatli sud qarorlarini qabul qilishga erishish orqali yurtdoshlarimizning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Endilikda fuqarolar va tadbirkorlar o'z huquq va qonuniy manfaatlarini sardarda himoya qilishi uchun zarrur imkoniyatlar yaratilib, sud ishlarni yuritishdagi tortishuv va tarafalarning tenglik tamoyillarini to'laqonli amalga oshirish, sudlar faoliyatini to'liq raqamlashtirish, sud majlislerida masofadan turib ishtirot etish imkoniyatini kengaytirish ham muhim vazifa sifatida belgilab olindi.

Mazkur hujjatlar sudylarning mustaqilligi va daxlsizligi kafolatlarini kuchaytirmoqda. Sud ishlarni hal etishga aralashganlik va sud hujjatini ijo etmaganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish, shuningdek, sud hujjatining ijo etishini ta'minlashga qaratilgan ta'sirchan manezixmlarni joriy etish belgilandi. Sud qarorlarining qat'iy ijrosini ta'minlashda davlat organlari va mahalliy hokimliklarning mas'uliysi oshirilib, xalqimizning odil sud va davlatdan rozi bo'lishiga e'tibor kuchaytirilmoqda. Shu bilan birga, odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga aralashganlikka oid har bir jinoyat ishi yakuni bo'yicha jamoatchilikni omoviy axborot vositalari orqali majbuliy ravishda xabardor qilish tartibi joriy etiladi.

Farmon asosida sudylarning nisbatan turar joy daxlsizligiga, yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvilar va boshqa so'zlashuvilar, aloqa tarmoqlari orqali uzatiladigan pocta, kuryerlik jo'natmalari va telegraf xabarlarining sir saqlanishiga bo'lgan huquqlarni chekllovchi, abonentlar yoki abonent qurilmalari o'tasidagi bog'lanishlar to'g'risidagi axborotni olishdan iborat tezkor-qidiruv tadbirlarining o'tkazilishiga faqat Bosh prokurorning sanksiyasi asosida yo'l qo'yilishi belgilandi.

Yana bir muhim jihat, Sudylarning chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida ularning ishiga har qanday aralashuv qat'iy jazolaniishi va sudylarning savoxitris ishlashti uchun davlat tomonidan barcha sharoitlar yaratilishi ko'zda tutilmoida.

Shuningdek, tuman, shahar sudlari tomonidan bиринчи instansiya da ko'rilgan ishlarni viloyat va unga tenglashtirilgan sardarda apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish vakolati berilayotgani sud qarorlarini qonuniy va adolatli qabul qilinganini tekshirishning qulay va soddalashtirilgan tartibini yaratadi. Bu tartib amalga oshishi bilan aholining sudma-sud ovora bo'lib yurishiga barham beriladi.

Endilikda, yuqori instansiya sudlariga yanada katta mas'uliyat yuqliani, ishni yangidan ko'rish uchun quyi sudlarga yuborish tartibining bekor qilinayotgan ham sud hujjatidani norozi shaxsning yuqori instansiya umid va ishonchini mustahkamladi.


Eng asosiysi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini yanada kuchaytirilib, ish bo'yicha barcha holatlardan sud tomonidan har tomonlama va to'liq tekshirilishi, dallilarga xolisona baho berilishi, huquq-tartibot idoralarining tamomila yangicha ishlashti va xalqimizning sardurga bo'lgan qat'iy ishonchini oshirishda muhim o'rinni tutadi.

Mazkur chora-tadbirlar sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash bilan birga, sudlar faoliyatini samaradorligi va odil sudlov sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dildora BAZAROVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori



DAVLATIMIZ rahbari joriy yilning 17-18-yanvar kunlari Singapur Respublikasi Prezidenti Halima Yaqubning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi. Mazkur tashrif davomida ikki mamlakatning Markaziy va Janubi-Sharqiy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik va integratsiyani kengaytirish borasidagi tajribasi batafsil ko'rib chiqildi.



SINGAPUR TAJRIBASINI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH MUHIM AHAMIYATGA EGA

Qayd etish lozimki, Singapur davlati Osiyo – Tinch okeani mintaqasining iqtisodiy markazi hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatlari kurashish namunasida Singapurdagi islohotlarni ko'rsatish mumkin. Uzoq yillardan buyon ushu davlat elektronika, kimyo sanoati, bioteknologiyalar, bank sohasi, logistika va transport mashinasozligi kabi muhim tarmoqlardagi muvaffaqiyatlariga tayanib, jahondagi eng yirik va rivojlangan iqtisodiyat markazlaridan bira bo'lib kelmoqda.

Shu bilan birga, Singapur korruptsiyaga qarshi kurashish yo'naliishi bo'yicha jahoning eng ilg'or mamlakatlarini qatorida e'tirof etilishi barchaga ma'lum. Bu davlat qisqa vaqt ichida Osiyoning qo'loq mamlakatidan dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatoriga kira oldi. Buning zamirida esa korruptsiyaga qarshi kurashish yotadi.

Xususan, "Transparency International" xalqaro nodavlat tashkilotining korruptsiyani qabul qilish bo'yicha 2021-yilda e'lon qilingan indeksida mazkur davlat 4-o'rnni egallagan.

BYURO OLIV HOKIMIYAT ORGANLARI DAGI PORAXO'R'LARNI TERGOV QILADI

Singapurdagi korruptsiyaga qarshi kurashishda asosiy mas'ul muassasa Singapur korruptsiyaga jinoyatlarini tergov qilish Byurosi (CPIB) hisoblanadi. Ushbu tashkilot 1952-yilda Singapurdagi korruptsiyaga qarshi kurashuvchi mustaqil organ sifatida tashkil etilgan bo'lib, mamlakatning "Korruptsianing oldini olish to'g'risidagi qonuni"ga muvofiq korruptsiyaga oid huquqburzaliklarni tekshirish vakolatiga ega bo'lgan yagona organ hisoblanadi.

Fuqarolar Byuroga davlat xizmatchilarining hakaratlari ustidan shikoyat bilan murojat qilish va keltirilgan ziyyoni undirib berishni talab qilish imkoniyatiga ega. Korruptsya holatlari haqida xabar beruvchilarning himoyasi va nomi sir saqlanishi ta'minlanadi.

Byuro agentlari nafaqat amaldorlarga, balki ularning yaqin qarindoshlari va hatto tanishlariga tegishli bank hisob raqamlarini ham tekshirish

huquqiga ega. Shunga muvofiq, agarda mansabdor va uning oиласининг xarajatlari qonuniy topilayotgan daromaddan yuqori bo'lsa, ushbu holat Byuroga tergovni boshlash uchun kifoya hisoblanadi. Byuro, odatda, olyi hokimiyat organlaridagi yirik poraxo'r'larni tergov qilish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, Singapurdagi jinoyat ishlari bo'yicha sardlara korruption yo'l bilan orttirilgan daromad va mol-mulkni musodara qilish vakolati berilgan.

Qariyb 4 million aholi istiqomat qilayotgan Singapur tajribasi siyosiy iroda, samarali antikorruption qonunchilik va mustaqil Byuro evaziga bir necha o'n yilda korrupsiyan juda past darajaga tu-shirish mumkinligini namoyish etdi.

HAMKORLIK

O'zbekiston va Singapur o'rtasida korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, tajriba almashish va milliy amaliyotga joriy etish maqsadiga muvoqif.

Jumladan, korruptsianing oldini olish va ta'lim sohasidagi sa'y-harakatlar, korruptsiyaga qarshi kurashishda Singapur hukumatining yondashuvni, korruptsiya haqida xabar beruvchilarni himoya qilish siyosasi va xalqaro hamkorlik yo'naliishlaridagi ishlari va tajribasi mamlakatimizning ushbu yo'naliishda olib borayotgan sa'y-harakatlar uchun yaxshi namuna sifatida keltirilishi mumkin.

Shuningdek, Singapur tajribasiga ko'ra korruptsiyaga qarshi kurashishda omoviy axborot vositalari bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, korruptsiyaga qarshi kurashishga oid xalqaro standartlar hamda mazkur yo'naliishda jamoatchilikning o'rni va roli beqiyos.

O'zbekistonda ham korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy va institutsional bazani yanada takomillashtirish, korruptsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmini joriy etishda Singapur tajribasini qo'llish muhim ahamiyatini kasb etadi.

Daler VALIJONOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b.,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

 NAMANGAN

YANGIQO'RG'ON tumanida yuridik xizmat ko'satiladigan tashkilotlar – umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, soliq inspeksiyasi, aholi bandligiga ko'maklashish markazi, davlat ko'p tarmoqli markaziy va oilavly poliklinikalar xodimlari tomonidan yuborilayotgan hujjatlarni ko'rib chiqish va ularni huquqiy ekspertizadan o'tkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda.


 SURXONDARYO

FUQARO M. Zaripov rahbarligidagi "Marhamat-Tohir" MChJ bilan Surxondaryo ko'priklardan foydalanish unitar korxonasi o'rtsida beton mahsulotlari yetkazib berish yuzasidan shartnoma tuzilgan.



TADBIRKORNI TANG QOLDIRGAN UNITAR KORXONALAR...

Shartnomaga asosan 401 million 674 ming 847 so'm, shuningdek mazkur MChJ bilan Termiz tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi o'rtaida ham shartnoma tuzilgan bo'lub, unga muvoqiq unitar korxonaga beton mahsulotlari yetkazib berilgani uchun 96 million 235 ming so'm to'lanishi lozim bo'lgan. Ammo har ikkala unitar korxona ham shartnoma shartlarini buzib, to'lovlarini amalga oshirmagan. Termiz tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan MChJ rahbari ushbu masalada amal yordam so'rangan.

Mazkur murojaatni o'rganish jarayonida "Marhamat-Tohir" MChJ bilan Surxondaryo ko'priklardan foydalanish va Termiz tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonalar o'rtaida tuzilgan shartnomaga asosan tegishli to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilganai tadbirkorning mulkiy va shaxsiy xuuqqlari buzilishiga olib kelgani aniqlandi.

Tuman adliya bo'limi tomonidan Surxondaryo ko'priklardan foydalanish unitar korxonasidan "Marhamat-Tohir" MChJ foydasiga 401 million 674 ming 847 so'm asosiy qarz va 130 million 544 ming 310 so'm penya, jami 532 million 219 ming 157 so'm va Termiz tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasidan 96 million 235 ming so'm asosiy qarz va 48 million 117 ming so'm penya, jami 144 million 352 ming so'm miqdorida kreditorlik qarzorliklarni undirish yuzasidan Termiz tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizalari kiritildi.

Tegishli kreditorlik qarzorliklarni undirish yuzasidan sudning hal qiluv qarorlari qabul qilinib, tadbirkorlik subyektining qonuniy huquqlari tiklandi.

Bahodir ASHUROV,
Termiz tuman adliya bo'limi boshlig'i

HUKUMAT QARORINING IJROSI YO'QMI?

Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrda-gi "Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida "O'zbekiston Respublikasi davlat muassasalarini tibbiyot va farmatsevtika xodimlari mehnatiga haq to'lash tartibi va shartlari to'g'risida"gi Nizomning 25-bandida, vrachlarga, o'rta va kichil tibbiyot xodimlari, shuningdek, sog'iqliqi saqlash barcha muassasalarini farmatsevtika xodimlari uzlusiz ish stagi 5 yildan 10 yilgacha bo'lganda tarif stavkasining 5 foizi miqdorida, 10 yildan 15 yilgacha bo'lganda 10 foizi miqdorida, 15 yildan 20 yilgacha bo'lganda 15 foizi miqdorida, oly ma'lumotga ega bo'lgan tibbiyot hamshiralari uchun esa tarif stavkasining 20 foizi miqdorida, 20 yildan ortiq bo'lganda 20 foizi miqdorida belgilanishi, oly ma'lumotga ega bo'lgan tibbiyot hamshiralari uchun esa tarif

stavkasining 30 foizi miqdorida ustamalar to'lanishi belgilangan.

Biroq, tuman maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli maktabgacha ta'lim tashkiloti hamshiralarning 37 nafriga yugoridagi hukumat qarorida belgilangan uzlusiz ish stajiga qo'shib berilishi lozim bo'lgan ustama pullari 2019-yilning may oyidagi ho-zirga qadar to'lab berilmagan. Tuman adliya bo'limi tomonidan hamshiralarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlari bo'yicha Yangiyo'rg'on tumanlararo sudiga da'vo arizalari kiritilib, sudning hal qiluv qaroriga ko'ra, 37 nafr xodimiga 200 million so'mga yaqin ustama to'lab berildi.

Sherali PARPIOYEV,
Yangiyo'rg'on tuman adliya bo'limi boshlig'i

 TOSHKENT

MIRZO Ulug'bek tuman adliya bo'limiga tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi umumi o'rta ta'lim maktablarining kutubxonachilarini tomonidan ustama haqlari to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib yo'ilangan jamoaviy murojaat kelib tushdi.

Ushbu murojaat o'rganiganda, Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-sentabrda 490-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi muassasalarining qo'shimcha haq to'lanadigan xodimlarining lavozimlari ro'yxati, qo'shimcha haqning turlari va miqdorlari"ning 23-bandiga ko'ra maktablar, barcha tur va nomdag'i maktab-internatlar, o'rta maxsus va kasb-hunar – texnika o'quv yurtlari kutubxonachilariga yoki boshqa xodimlarga darsliklarning kutubxona fondi bilan shug'ullanganliklari uchun mehnatiga haq to'lashning eng kam miqdorining 3,6 foizi miqdorida qo'shimcha haq to'lanishi belgilanganiga qaramasdan, ularga ustama to'lanmagani ma'lum bo'ldi.

Mazkur holatdan kelib chiqib, adliya bo'limi tuman xalq ta'limi bo'limiga taqidimma kiritib, kutubxonachilarining 90 million so'mga yaqin to'lanmay qolgan ustamalari to'lab berildi.

Osunjon ESHONQULOV,
Mirzo Ulug'bek tuman adliya bo'limi
bosh maslahatchisi



USTAMA TO'LAB BERILDI

 TOSHKENT

2022-YILDA ENG KO'P FOYDALANILGAN davlat xizmatlari qaysi?



TOSHKENT viloyatida o'tgan 2022-yilda 22 ta tuman va shahar davlat xizmatlari markazi orqali aholiga 1 million 114 ming dan ortiq davlat xizmatlari ko'satildi. Shuningdek, 221 ming 481 dan ortiq fuqaro xizmatlardan mustaqil ravishda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali my.gov.uz orqali foydalandi.

Eng ko'p foydalanilgan davlat xizmatlari bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga joylashtirish – 130 ming 419 ta, kadast pasportini berish – 93 ming 332 ta, Mobil-ID bo'yicha – 66 ming 386 ta, ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxitidan o'tkazishga ariza yuborish – 61 ming 601 ta, nafaqa ta'yinlash bo'yicha esa – 34 ming 337 ni tashkil etdi.

Eng ko'p davlat xizmatlari Angren shahar davlat xizmatlari marmazi orqali ko'satildi. Jumladan, Angren shahrida 94 ming 319 ta, Qibray tumanida 82 ming 79 ta, Toshkent tumanida esa 80 ming 886 ta davlat xizmatlari ko'satilgan.

2022-yilda 28 ming 434 ta tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxitidan o'tkazilib, shundan 6 ming 517 tasi yuridik shaxs, 11 ming 535 tasi yakka tartibdag'i tadbirkorlar. Shuningdek, 9 ming 990 ta dehqon xo'jaligi, 392 ta oilavly tadbirkorlik subyektlari davlat ro'yxitidan o'tdi. Davlat ro'yxitidan o'tgan xorijiy investitsiyalar ishtirotidagi korxonalar soni esa 31 tani tashkil etdi.

Tuman markazidan uzoqda joylashgan hududlarda DMning 8 ta filiali tashkil etilib, ular orqali ko'satilgan xizmatlar soni 23 mingtadan oshdi. Olis va chekkal hududlarda istiqomat qiluvchi aholining davlat xizmatlari bo'lgan talab va ehtiyojini qondirish maqsadida 82 ming 605 ta sayyor davlat xizmatlari ko'satildi.

Musajon KARIMOV,
Toshkent viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

4 "MADAD" JAVOB BERADI



Savollarga
"Madad" NNT bosh mutaxassis
Yaho MAMADALIYEV
javob berdi



ONA SIFATIDA QANDAY HAQ-HUQUQLARIM BOR?

- ILTIMOS, nikohni bekor qilishning qonunu tushuntirib bersangiz. Turmush o'tog'im bilan qonuniy turmush qurganimiz, o'ttada bir nafar farzandimiz bor. Oilaviy kelishmovchilik sabab u uydan chiqib ketdim. Kecha o'zi uymiga ajrim bo'yicha suda chaqiruv xati kelibdi. Mening ayol, ona sifatida qanday haq-huquqlarim bor? O'zim uchun emas, farzandimning moddiy ta'minoti uchun uning otasidan nimani labal qila olaman?

**Nilufar TURG'UNOVA,
Namangan viloyati**

- Oila kodeksining 23-moddasiga ko'ra, er va xotinning nikoh davomida ortig'ani mol-mulkulari, shuningdek nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er-xotinning umumiy maqlab'larini hisobiga olingan mol-mulkulari (ushbu mol-mulk er yoki xotinning nomida bo'lismidan qat'i nazar) ularning birgalidagi umumiyl mulki hisoblanadi. Er va xotindan biri uy-ro'zor ishlarni yuritish, bolalarini parvarish qilish bilan band bo'lgan yoki bosqha uzrli sabablariga ko'ra mustaqil ish haqi va bosqha daromadga ega bo'limgan taqdirda ham er va xotin umumiyl mul-mulkka nisbatan teng huquqqa ega bo'ladi.

Shuningdek, Oila kodeksining 27-moddasiga ko'ra, er va xotinning umumiyl mol-mulkini bo'lish er va xotindan birining talabiga ko'ra, ular nikohna bo'lgan davrda ham, nikohnan ajralishgandan keyin ham bo'linishi mumkin. Mol-mulkni bo'lismida nizo chiqadigan taqdirda, mol-mulk sud tonomidan bo'lib beriladi. Mulkni bo'lib olish uchun javobgar (eringiz) yashaydigan joydag'i fuqarolik ishlari bo'yicha suda murojaat qilishning lozim.

Shu bilan birga, farzandning ta'minoti uchun er va xotin birgalidaka mas'ul hisoblanadi. Oila kodeksining 96-moddasiga ko'ra, ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart.

Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatin ixtiyorli ravishda bajarmagan ota (ona)-dan sundin hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'i ga asosan aliment undiriladi. Ushbu asosga ko'ra farzandining ta'minoti uchun aliment undirishningiz mumkin. Aliment undirish uchun nikohni bekor qilish shart emas, bir uyda yashab turib ham aliment undirish mumkin.

Shu bilan birga, agarda farzandningiz 3 yoshdan kichik bo'lsa, Oila kodeksining 117-moddasiga ko'ra, eringizdan bolani parvarishlash davri uchun bola uch yoshga to'lgunga qadar ta'minot olish huquqiga egasiz. Ushbu ta'minotni undirish uchun Fuqarolik ishlari bo'yicha suda murojaat qilishning lozim.

Bundan tashqari, agarda eringizning nomida uy-joy mavjud bo'lsa, Uy-joy kodeksining 32-moddasiga ko'ra, siz suddan eringizning nomidagi uyga kiritib qo'yishni talab qilishningiz mumkin.

KONTRAKT TO'LOVI TO'LAB BERILADIMI?

- Ma'lumotim o'rta maxsus. Oilaviy sharoitimizdan kelib chiqib ishlayotganligim uchun oliygoҳda sirtqi ta'lum bo'yicha o'qiyapman. Sirtqi ta'lum shaklida o'qiydigan talabalar "Yoshlar daftari"ga kiritilgan bo'sa, ularning ham kontrakt to'lovlarini to'lab beriladimi?



**Odilxon
OCHILOV,
Qashqadaryo
viloyeti**

- Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi "Yoshlar muammlarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Yoshlar daftari"ni yuritish orqali yoshlar muammlarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tartibi to'g'risida"gi nizomga ko'ra, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan, respublikamizdag'i professional ta'lum tashkilotlari ta'lum olayotgan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan barcha oly ta'lum tashkilotlari (davlat, nodavlat oly ta'lum tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi hududidagi xorijiy oly ta'lum tashkilotlari va xorijiy oly ta'lum tashkilotlaringin filiallarida) batalavratning kunduzgi, sirtqi va kechki shaklida, magistraturaning kunduzgi yo'nalishida ta'lum olayotgan o'quvchi-talabalarga to'lov-kontrakt asosida o'qish bo'yicha yillik xarajatlarining bar qismi qoplab beriladi.

Bunda yoshlar yetakchisining ijobji tavsiysi bilan kontraktning 50 foizigacha, biroq BHMning 50 baravarai (15 million so'm)dan oshmagan qismi to'lab beriladi. Ikkinchisi va undan keyingi mutaxassislilik, qo'shma ta'lum dasturlari bo'yicha, tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida ta'lum olayotganlar bundan mustasno.

MUDDATIDAN OLDIN PENSIYAGA CHIQA OLAMANMI?

- Hozir 58 yoshdamon. 25 yillik ish stajiga egaman. Pensiya chiqishimga ikki yil qolgandi. Hozirgacha ishlab kela-yotgan ish joyimda mening shtatimga qisqartirish kelganligi uchun ishsiz qoldim. Men shu holatda muddatidan oldin pensiyaga chiqishim mumkinmi?

**Jamol ESHBEKOV,
Toshkent viloyati**

- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 14-moddasiga ko'ra, texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatinining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslar:

- ✓ erkaklar – 58 yoshga to'lganda va ish staji kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;
- ✓ ayollar – 53 yoshga to'lganda va ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda pensiya olish huquqiga ega bo'ladi.

Avallo, siz hozirda pensiyaga chiqishningiz uchun tuman (shahar) Aholi bandligiga ko'maklashish markazi (Mehnat birjasi)ga murojaat qilasiz. U yerda ishsiz deb ro'yxatga olinganidan keyin pensiya yoshiga yetmasdan ham pensiyaga chiqishningiz mumkin bo'ladi. Agar Aholi bandligiga ko'maklashish markazi sizga maqbul keladigan ish topib bersa, yana ikki yil ishlab, keyin pensiyaga chiqishningiz ham mumkin.

ISH STAVKAM SAQLANIB QOLINADIMI?

- Maktabda o'qituvchi bo'lib ishlayman. O'tgan yili farzandli bo'ldim. Tug'u-rug ta'llilden keyin ishga chiqmoqchiman. Tug'uruq ta'lligachaga bir stavkada ishlar edim. Ishga qaytganimda ham shu bir stavka ishim saqlanib qoladimi?

**Zamira IKRAMOVA,
Andijon viloyati**

- Amaldagi Mehnat kodeksining 233, 234-moddalariga muvofig, homiladorlik va tug'ish, shuningdek, bolani parvarishlash ta'llillari davrida ayloning ish joyi (lavozimi) saqlanadi. Biroq bu dekretdan qaytgan o'qituvchiga avvalgi darsini berish shart degani emas.

Bu holatda "Umumta'lum muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shaklantirish tartibi to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 3271)ga ko'ra, nizomning 15 va 19-bandlari dars taqsimotiga nisbatan qo'llanadi.

Ushbu nizomning 19-bandiga ko'ra, homiladorlik va tug'ish ta'lli hamda bola parvarishidan qaytgan o'qituvchilarga dars soatlarini mehnat qonunchiligi asosan mazkur Nizomning 15-bandida



belgilangan ko'satkichilar ustuvor ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

Demak, dekretdan qaytgan o'qituvchi ham o'zining nati-jalariga, erishgan yutuqlariga ko'ra dars olishi mumkin.

Shuningdek, yuqorida ni-zomning 16-bandida ko'satkichilar ketma-ketlik asosida ustunlikka ega bo'lgan o'qituvchilarga dars soatlarining maksimal miqdordari belgilanishi etilishi aytilmoqda. Bu ko'satkichilar yuqori o'qituvchiga maksimal dars berish shart degani emas.

Dars soatlarini belgilashda maktabda shu fan bo'yicha mavjud dars soatlariga va shu fandan dars beruvchi o'qituvchilar soniga, ularning ko'satkichilariga qarash lozim. Shunga ko'ra, o'z natijangizga qarab 20 soatgacha dars olishingiz mumkin.

YO'LLANMA OLISH UCHUN QAYERGA MUROJAAT QILINADI?

- Nigironligi bo'lgan shaxsler sanatoriylarda davolanish uchun yo'llanma olish masalasida qayerga murojaat qilishlari kerak?

**Dilshod KARIMOV,
Farg'on'a viloyati**

- Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-novabrda "Aholiq sanatoriylarda davolanish uchun yo'llanmalar berish sohasiga axborot-teknologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi qarori bilan keksalar va nigironligi bo'lgan shaxslarga sanatoriylarda davolanish uchun yo'llanmalar berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti tasdiqlangan.

Ushbu reglamentga ko'ra, 2022-yil 1-iyul dan keksalar va nigironligi bo'lgan shaxslarga sanatoriylarda davolanish uchun yo'llanmalar faqat davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalni orqali berilmoga.

Yo'llanmalar quyidagi toifadagi keksalar va nigironligi bo'lgan shaxslarga beriladi:

- ✓ urush nogironlariga va qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslar;
- ✓ halok bo'lgan harbiy xizmatchilarining yangi nikohdan o'tmagani beva xotinlari (beva erlari);
- ✓ respublika ahamiyatiga molik shaxsiy pensiya oluvchi shaxslar;
- ✓ Chernobil AES halokati oqibatida nur-lanish kasalligiga chalingan va uni bosidan kechirgan shaxslar, shuningdek, Chernobil halokati sababli nogiron bo'lib qolgan shaxslar;
- ✓ yadro poligonlari va boshqa radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslar;
- ✓ Yo'llanmalar quyidagi toifadagi keksalar va nigironligi bo'lgan shaxslarga beriladi:
- ✓ urush nogironlariga va qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslar;
- ✓ halok bo'lgan harbiy xizmatchilarining yangi nikohdan o'tmagani beva xotinlari (beva erlari);
- ✓ respublika ahamiyatiga molik shaxsiy pensiya oluvchi shaxslar;
- ✓ Chernobil AES halokati oqibatida nur-lanish kasalligiga chalingan va uni bosidan kechirgan shaxslar, shuningdek, Chernobil halokati sababli nogiron bo'lib qolgan shaxslar;
- ✓ yadro poligonlari va boshqa radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslar;
- ✓ I va II suruh nogironligi bo'lgan shaxslar, ko'zi ojiz I suruh nogironini kuzatib boruvchi shaxs;
- ✓ o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar;
- ✓ yoshga doir pensiya oluvchilar.

Davlat xizmatlari ko'rsatilgani uchun yig'im undirilmaydi.

Yo'llanmalar keksalar va nigironligi bo'lgan shaxslarga 12 kunga, yo'llanmalarining amal qilish muddati boshlanishidan 10 kun oldin beriladi.


KO'PCHILIKNI larzaga solgan mud-hish xabar: "Toshkentning Yangihayot tumanida 31-yanvar kuni 12 yoshli qiz bedarak yo'qolgan. 1-fevralga o'tar kechasi soat taxminan 20:30 larda uning murdasi o'z uyi yaqinidan topilgan. Holat yuzasidan 29 yoshli erkak ushlangan, unga nisbatan Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Bosh prokuratora ma'lumotlariga ko'ra, "gumonlanuvchi shaxs 2022-yilning yozida marhumaning xonadonida yollanma ishchi sifatida ta'mirlash ishlarini amalga oshirgan". Hozircha boshqa rasmiy xabar yo'q.

NIMA UCHUN YASHAYAPMIZ?

Bu voqeа barchaning ruhini sindirdi, millat sha'nini oyoqosti qildi. Ota-onalar xavotiru tahlikada. Tafsilotlarini tilga olish qanchalik og'ir bo'lmasin, bu fojia yuzasidan ijtimoiy tarmoqlarda senatorlar, deputatlar, olimlar, jurnalistlar, blogerlar, ota-onalar, keng jamoatchilik vakillari, oddiy odamlar o'z fikrlarini g'azab, alam, cheksiz nafrat bilan bildiryapti. O'z yurtida, o'z mahallasida, o'z ko'chasida yoshtiqa qizning kuppera-kunduz kuni shunday yovuzlik qurboni bo'lishi mudhish voqeа, albatta. Ko'pchilik qonunlarimizga qat'iyroq normalarni kiritish shartligini bildirmoqda. Hatto bunday og'ir jinoyatlar uchun o'lim jazoqini qaytarish kerakligi haqiqi haqli talablar ham bor. Chunki bunday xavotirga o'rinn bor, qat'iy himoyaga ehtiyoj bor. Bundan avval ham yurtimizning ayrim huddularida pichoqlangan, bo'g'ib o'dirilgan, yoqib yuborilan, suvgu cho'ktirilgan ayollar, urib o'dirilgan o'smirlar, e'tiborsizlik va mas'uliyatsizlik qurboni bo'lgan go'daklar fojiasini barchamiz yaxshi bilamiz. Ularning izi hali sovgani yo'q, alami hali unutilgani yo'q. Hech qachon unutilmaydi ham.

Odamzod shaklida yurgan bunday tuban uva razil kimsalar o'zbek qavmidan emas, bizga begonadir, deging keladi. Biz zo'ravonlikqa qarshimiz deymiz-u ko'z o'ngimizda ro'y berayotgan dahshati tajovuzlarni bir-ikki kun o'zimizcha muhokama qilib, keyin o'tkazib yuboramiz, hammasini juda tez unutamiz. Eski fojialar yangi fojialar ostida qolib ketaveradi, ko'payaveradi... Rasmiyolar ham, bu ishlar xuddiki bo'lma-gandek, o'z yo'lida davom etaveradimi? Nega shunday?! Qanday jamiyatda yashayapmiz o'zi degan savolga javob topa

hayvon undan yaxshidur..."



olmaysan gohida. Axir, keyingi 3-4 oyda qancha fojialar sodir bo'ldi, qancha g'amu anduhlardan odamlarning qaddi bukildi, qancha gullar xazon bo'ldi? Nega gapirishi, chora ko'rishi, bu ko'rguliklarni bartaraf qilishga bosh bo'lishi kerak bo'lganlar Jim? Inson hayoti, millat sha'nii, qadr-qimmati, ori, g'ururi Siz uchun bir pulni?! Jamiyat bunday wahshiy kimsalardan tozalanmas ekan, bunday qora kunlar yana kimningdir boshiga tushmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi.

Zo'ravonlikka, bunday tajovuzlarga har bir kishi jabridyalarning o'rniq o'zini qo'yib qarshi kurashmas ekan, biro natija chiqishi qiyin. Millatimiz farzandlarini, Jordan aziz qorako'zlarimizni asrashga, nahotki, qurbimiz yetmaydim?! Nahotki, shunchalar ojizmiz, notavonmiz?! Jamiyat-dagi bu razolatga, bu falokatga qarshi tura olmasak, toat-ibodatlarimiz, orzu-niyatlari-miz, amalga oshirayotgan barcha ishlarimiz sarid chaqaga arzimasligi aniq! Kim uchun, nima uchun yashayapmiz o'z?!

Qonun bor-ku, deysizmi? To'g'ri, qonun bor...

Afsuski, qonunlarimiz kuchli bo'lganida edi, bunday mudhish voqealar sodir bo'lmadsi, bot-bot takrorlanmasdi... Ming afsus! Bugun bu fojia qonunlarimizni ham titratishi, o'zgartirishi kerak aslida.

CHET ELDA BUNDAY JINOYAT UCHUN JAZO QAT'IV...

Demokratiya va inson huquqlari instituti direktori, yuridik fanlar nomzodi, Sayyora XODJAYEVA sahifasidan olingan, chet davlatlarda aynan shunday zo'ravonlik uchun belgilangan jazorlar to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar hech kimni befarq qoldigarsi-aniq:

"1996-yilden buyon AQShda pedofillar ga nisbatan kimyoveryastratsiya qo'llanildi. Kaliforniya shtatida 13 yoshgacha bo'lgan shaxsga nisbatan takroran jinsiyo ziyoratini qilgan shaxslar, ozodlikdan mahrum qilish joyalaridan bo'shangandan so'ng, majburiy tarbitda kimyoveryastratsiya qilinishi talab etildi.

Germaniyada bolalarga nisbatan jinsiyo huquqbaزارلار 6 oyдан 10 yilgacha

qamoq bilan jazolanadi. O'limga olib keladigan zo'rash uchun o'lim jazos qo'llaniladi. Buyuk Britaniyada kimyo-viy kustratsiya 2008-yildan beri qonunyidir. Eron, Iroq, Saudiya Arabiston, Xitoy, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlari, Pokiston, Janubiy Koreya va Kubada pedofillar qatl etiladi. Ko'pincha buning uchun usullar juda shafqatsiz tanlanadi. Nigeriya va Janubii-sharqiy Afrikada tuban shaxslar omma oldida tiriklayin yoqib yuboriladi. Yamanda jinoystachilar omma oldida otib tashladi va qatl televendiye orqali namo-yish etiladi. Bu boshqa tuban shaxslar uchun o'ziga xos vizual profilaktika bo'lib xizmat qiladi. Eronda zo'rlovchilar va pedofillar omma oldida osiladi. Indoneziyada ularni maxsus qamchi bilan urishadi. Ko'pgina mamlakatlar da "Bolalarga nisbatan jinsiyo jinoyatlar sodir etganlikda ayblangan shaxslar ning yagona reyestri to'g'risida"gi qonun loyihasi qabul qilinmoqda. Unga voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiyo jinoyatlar sodir etganlikda aybdor deb topilganlar kiradi. Qonun chiqaruvchilarining fikriga ko'ra, reyestre bolalar muassasasiga (makkab, bolalar bog'chasi, bolalar lageri va boshqalar) kimnidir ishga olishdan oldin, ish beruvchi bu shaxsnинг jinsiyo jinoyatlarida ayblanganligini tekshirishi uchun zarur. Bunday ma'lumotlarni uyga enaga olishini niyat qilgan ota-onalar olishi mumkin.

Qozog'istonda 2020-yil 1-yanvardan boshlab pedofiliya uchun jazo kuchaytilridi, endi voyaga yetmagan bolanling jinsiyo daxlsizligiga tajovuz qilganda yirigma yilgacha qamoq jazo-siga hukm qilinadi".

Qonunlarimizda nomusga tegish bilan bog'liq holda qasddan odam o'dirishin jinoyatni 15 yildan 25 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolandi. Shunga qaramasdan, bunday turdag'i jinoyatlar kamaymatganligi kishini tashvishiga soladi. Bu esa bunday turdag'i jinoyatlar uchun yanada keskinroq sanksiyalarini qo'lash kerakligini taqozo qiladi.

RAZOLAT BOTQOG'IGA QACHON BOTDIK?

Kulfat tashqaridan kelmaydi, u bizning o'zimizda, ich-ichimizdadir. Nimalarni boy bergenimizni, nimalarni yo'qotayotganimizni, nahotki, taftish qilishdan yiroqmiz? Birinchilab sababni qonunlarimizning qat'iy emasligidan, ja'zoni kuchaytirish lozimgiligidan axtardik, ishsizlikni bahona qildik, tarbiyasizlik, ma'naviy qashshoqliq haqida o'ylab ham ko'rmadik. Biror ko'ngilisizlik bo'lsa, ota-onalarni bolalariga beparo, e'tiborsiz, mas'uliyatsizga chiqardik, hushyor bo'lsin, ulardan xabardor bo'lsin, degan iddaolar bilan barcha yukni ota-onalar yelkasiga ortib, yelkamizda yukan xalos bo'didik.

Gumonlanuvchi muqaddam sudlangan, degan argumentning o'ziyoq ijtimoiy xavfning yuqoriligidan dalolat bermaydim? Uning sayoq yurishi bilan kimming ishi bor, albatta, hech kimming... So'qqabosh emasdир, ota-onasi, opa-singlisiga bordir. Mahallada oqsosqol, posbon, profilaktika inspektorini yo'qmi? "Xavfsiz hudud", "xavfsiz shahar" degan ertaklarni endi kimga aytish ertakchilarning vijdoniga havola.

Jamiyatdagi bunday tubanlik qachon paydo bo'ldi? Bu haqdagi bir oilaning boshiga mana shunday musibat tushgan chog'dagina o'ylab qolamiz. Keyin yana qorlar erib, izlar yo'qolgan-dek, hammasi unutiladi. Qachongacha bunday yovuzlikka ko'z yumib yashash mumkin?

